



# IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



**VOL.3 № 4**

**2026**

## **FRAZEOLGIK BIRLIKLARNING AVTOMATLASHTIRILGAN LINGVISTIK TA'MINOTI: DOLZARB MUAMMOLAR VA YECHIMLAR**

**Fayziyeva Diyora Akmal qizi**

Registan School, ingliz tili akademik monitoring mutaxassisi

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada frazeologik birliklarning avtomatlashtirilgan lingvistik ta'minotini yaratishning dolzarb muammolari va ularning yechimlari tahlil qilinadi. Unda kompyuter lingvistikasi doirasida frazeologizmlarni aniqlash, tizimlashtirish va raqamli muhitga integratsiya qilish masalalari yoritilgan. Shuningdek, elektron lug'atlar, avtomatik tarjima tizimlari hamda sun'iy intellekt asosidagi vositalarning frazeologik birliklarni qayta ishlash va o'qitish jarayonidagi ahamiyati asoslab beriladi. Tadqiqot natijasida frazeologik birliklar uchun samarali lingvistik baza yaratish, ularni avtomatik tahlil qilish va qo'llash imkoniyatlarini kengaytirish o'zbek tilini o'qitish sifatini oshirishda muhim omil ekanligi ko'rsatib beriladi.

**Kalit so'zlar:** Frazema, kompyuter lingvistikasi, dasturiy ta'minot, lingvistik ta'minot, frazeologik birikmalar, iboralar, mobil ilova, lingvistik ta'minoti.

## **АВТОМАТИЗИРОВАННОЕ ЛИНГВИСТИЧЕСКОЕ ОБЕСПЕЧЕНИЕ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ: АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ**

**Файзиева Диёра Акмал кизи**

Registan School, специалист по академическому мониторингу английского языка

### **Аннотация**

В данной статье анализируются актуальные проблемы создания автоматизированного лингвистического обеспечения фразеологических единиц и предлагаются пути их решения. В рамках компьютерной лингвистики рассматриваются вопросы выявления, систематизации и интеграции фразеологизмов в цифровую среду. Также обосновывается значение электронных словарей, систем автоматического перевода и инструментов на основе искусственного интеллекта в обработке фразеологических единиц и в процессе обучения. В результате исследования показано, что создание эффективной лингвистической базы фразеологических единиц, а также расширение возможностей их автоматического анализа и применения являются важными факторами повышения качества преподавания узбекского языка.

**Ключевые слова:** фразема, компьютерная лингвистика, программное обеспечение, лингвистическое обеспечение, фразеологические единицы, идиомы, мобильное приложение, система лингвистического обеспечения.

## **AUTOMATED LINGUISTIC SUPPORT OF PHRASEOLOGICAL UNITS: CURRENT CHALLENGES AND SOLUTIONS**

**Fayziyeva Diyora Akmal qizi**

Registan School, English Academic Monitoring Specialist

### **Abstract**

This article analyzes the current problems and solutions related to the creation of automated linguistic support for phraseological units. Within the framework of computational linguistics, issues of identifying, systematizing, and integrating phraseological units into the digital environment are discussed. It also highlights the importance of electronic dictionaries,

machine translation systems, and artificial intelligence-based tools in processing phraseological units and in the teaching process. The study demonstrates that developing an effective linguistic database for phraseological units and expanding the possibilities of their automatic analysis and application are important factors in improving the quality of teaching the Uzbek language.

**Keywords:** Phraseme, Computational Linguistics, Software Support, Linguistic Support, Phraseological Units, Idioms, Mobile Application, Linguistic Support System.

Bugungi ijtimoiy rivojlanish jarayonida inson manfaatlarining ustuvorligi barcha sohalarda bo'lgani kabi tilshunoslik fanida ham sezilarli o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Ilm-fanning turli yo'nalishlarida kuzatilayotgan taraqqiyot tilning ichki tuzilishi, uning tarixiy rivojlanishi hamda funksional xususiyatlarini yanada chuqurroq o'rganishga imkon bermoqda. Natijada tilshunoslik doirasida yangi nazariy yondashuvlar va tadqiqot metodlari shakllanib, tilni kompleks o'rganishga yo'naltirilgan zamonaviy yo'nalishlar vujudga kelmoqda.

Hozirgi kunda til va nutqqa turli ilmiy nuqtayi nazardan yondashuvning kengayishi, shuningdek, tilshunoslikning boshqa fan sohalariga, xususan, psixologiya, sotsiologiya, informatika va kompyuter fanlari bilan integratsiyalashuvi natijasida lingvistik fanida bir qator yangi tarmoqlar shakllandi. Jumladan, sotsiolingvistik, psixolingvistik, pragmalingvistik, kompyuter lingvistikasi kabi yo'nalishlar til hodisalarini turli jihatdan o'rganishga xizmat qilmoqda. Ushbu yo'nalishlar tilning nafaqat tizim sifatidagi, balki uning amaliy va funksional xususiyatlarini ham chuqur tahlil qilish imkonini beradi.

Shu tariqa, zamonaviy tilshunoslikda interdisiplinar yondashuvning kuchayishi tilni o'rganish va tadqiq etishning yangi bosqichini boshlab berdi hamda uning nazariy va amaliy imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirdi.

Bu holatdagi o'zgarishlar jahonda, xususan, XX asrning ikkinchi yarmiga borib taqalsada, mustaqillik davrida yanada rivoj topib borayotgan o'zbek tilshunosligi tizimiga neyrolingvistik ("psixologiya, nevrologiya va tilshunoslikning chegaradosh bo'limi bo'lib, u miyaning nutq faoliyati mexanizmlarini va lokal miya shikastlanishlari bilan bog'liq nutq jarayonlaridagi o'zgarishlarni o'rganadi") [1], kompyuter lingvistikasi ("kompyuter uchun mo'ljallangan lingvistik ta'minot") [2], psixolingvistik ("nutqning hosil bo'lishi, shuningdek, nutqni idrok etish va shakllantirish jarayonlarini ularning til tizimi bilan o'zaro bog'liqligi holatida o'rganuvchi fan") [3], pragmalingvistik ("kishilar o'rtasidagi munosabatni ifoda etuvchi nutqiy etiket ko'rinishlari, nutqning sotsial xoslanishi lingvistik pragmatikaning o'rganish sohasi sanaladi") [4] kabi sohalar kirib kela boshladi. Shu o'rinda alohida ta'kidlash joizki, XXI asr — kompyuter texnologiyalari asridir. Kompyuter lingvistikasi esa aynan "kompyuter texnologiyalari asri"da o'zbek tilshunosligiga kirib kelgan yangilik bo'lib, hozirgi kunning eng rivoj topgan hamda jadal rivojlanayotgan sohalaridan biri hisoblanadi.

Muloqot jarayonida nutqni jozibali qiluvchi vosita sifatida xizmat qiladigan frazeologizmlar o'zining tuzilish jihati, leksik-semantik va sintaktik xususiyatlari, bundan tashqari, o'ziga xos etimologik kelib chiqishi va shakllanish belgilari bilan ajralib turadigan lisoniy birlik bo'lib, kishilarning fikr va mulohazalarini ifodalashda muhim rol o'ynaydi. Frazeologik birliklar ayni vaqtning o'zida inson ma'naviyati va madaniyatining buyuk mahsuli hamda nutqni boyituvchi birliklar hamdir. Ana shu ma'noda mazkur tadqiqot ishi frazeologizmlarni kompyuter lingvistikasi asnosida o'rganish orqali o'zbek xalqining milliy muloqot tarzi, tarixi, madaniyati, urf-odatlarini, an'analari va hayotiy qadriyatlarini o'zida aks ettiruvchi birliklar haqidagi bilimlarni boyitishda alohida ahamiyatga ega.

Frazeologik birlik (ibora, frazema, frazeologik ifoda) strukturasi va tarkibi barqaror, birikmaning semantik butunligi mavjud, tayyor nutq birligi bo'lgan hamda leksik jihatdan bo'linmaydigan birlik hisoblanadi [5].

Frazeologizmlar mohiyatan, asosan, og'zaki nutq va badiiy ijod mahsuli sifatida shakllanadi. Ular tilning obrazli ifoda imkoniyatlarini kengaytiruvchi muhim birliklar bo'lib,

insonning borliqni lisoniy idrok etish jarayonida faol ishtirok etadi. Olamning lisoniy manzarasi shakllanishida tilning barcha sathlari — fonetik, leksik, grammatik va semantik qatlamlar o‘zaro bog‘liq holda xizmat qiladi. Shunga qaramasdan, ushbu jarayonda leksik va frazeologik sathning o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi, chunki aynan shu qatlamlar orqali milliy-madaniy tajriba va obrazli tafakkur eng yaqqol namoyon bo‘ladi.

Vaqt o‘tishi bilan tilning uslubiy differensiasiyasi natijasida frazeologik birliklar turli funksional uslublarda muayyan chegaralanish va ixtisoslashuv xususiyatiga ega bo‘ladi. Masalan, “vafot etmoq” ma’nosini ifodalovchi birliklar tizimida so‘zlashuv nutqida “ko‘z yumdi”, “joni uzildi”, “dunyodan ketdi” kabi neytral yoki oddiy evfemistik shakllar qo‘llansa, rasmiy uslubda “hayotdan ko‘z yumdi”, “vafot etdi” kabi me’yorlashgan variantlar ishlatiladi. Badiiy matnlarda esa “abadiyat sari yo‘l oldi”, “yorug‘ olamni tark etdi” singari poetik ifodalar uchraydi. Bu holat frazeologik sinonimiyaning uslubiy differensiallashuvini ko‘rsatadi.

Mazkur frazeologik sinonimik qatorlarning shakllanishi va ularning uslubiy xoslanishi lingvistik tizimning dinamik xususiyatini aks ettiradi. Shu nuqtai nazardan, frazeologizmlarning o‘quv va ilmiy maqsadlardagi tizimli tavsifini beruvchi elektron lug‘atlar va lingvistik ma’lumotlar bazalarini yaratish tilni o‘qitish hamda avtomatlashtirilgan qayta ishlash jarayonlari uchun muhim ahamiyatga ega.

Istalgan tildagi matnlarni avtomatik tahrir va tahlil qilishda yoki elektron lug‘at tizimi orqali qidiruv berilganda kompyuter xotirasida muayyan lingvistik ta’minot bo‘lishi talab qilinadi. Ta’minot asosini esa lingvistik qoidalar va me’yorlar tashkil etadi. Shuningdek, lingvistik ta’minotdan muayyan tilning lingvistik va filologik lug‘at boyligi ham o‘rin oladi. Shu bois lingvistik protsessorni yaratishda qayta ishlanayotgan tabiiy til haqida yetarli darajada ma’lumotga ega bo‘lish talab qilinadi. Bu, o‘z navbatida, lingvistik protsessorning mukammal bo‘lishini ta’minlaydi. O‘zbek tilidagi matnlarni avtomatik tahrir va tahlil qilish dasturining lingvistik protsessorini yaratishda tilshunosga o‘zbek adabiy tilining lingvistik lug‘atlari va grammatik qoidalar jamlanmasi zarur bo‘ladi [6].

Frazeologik birliklar, ya’ni frazemalar ham so‘zlar kabi lug‘aviy birliklar tizimiga kiradi va tilning leksik boyligini shakllantiruvchi muhim komponentlardan biri hisoblanadi. Ular til tizimida tayyor holda mavjud bo‘lib, nutq jarayonida individual ravishda hosil qilinmaydi. Boshqacha aytganda, frazeologik birliklar so‘z birikmasi yoki gap shaklida nutq davomida yangidan yaratilmaydi, balki lisoniy xotirada yaxlit birlik sifatida saqlanadi va nutq jarayonida tayyor holda qo‘llaniladi. Ushbu xususiyat ularni barqaror leksik birlik sifatida tavsiflashga asos bo‘ladi.

Frazeologik birliklarning ana shu barqarorligi va semantik yaxlitligi ularning kompyuter lingvistikasi doirasida muhim o‘rin egallashini taqozo etadi. Xususan, matnni avtomatik qayta ishlash, tahrirlash, semantik tahlil qilish hamda mashina tarjima tizimlarida frazeologizmlar alohida lingvistik obyekt sifatida ko‘rib chiqiladi. Chunki ularning ma’nosi ko‘pincha komponent so‘zlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri yig‘indisidan emas, balki butun birlikning ko‘chma va kontekstual mazmunidan kelib chiqadi.

Frazeologik birliklarning ushbu xususiyati ularni avtomatik tarjima tizimlarida alohida yondashuv asosida qayta ishlash zarurligini ko‘rsatadi. Ularni so‘zma-so‘z tarjima qilish aksariyat hollarda semantik buzilishlarga olib keladi va matn mazmunining noto‘g‘ri talqin qilinishiga sabab bo‘ladi. Shu sababli zamonaviy lingvistik ta’minot tizimlarida frazeologik birliklar maxsus leksik-semantik bazalarga kiritiladi hamda ularning ekvivalentlari maqsad til doirasida to‘liq yoki funksional moslik asosida beriladi.

Natijada avtomatik tarjima dasturlari, mobil ilovalar va lingvistik platformalarning samarali ishlashi uchun frazeologik birliklarni alohida korpus sifatida modellashtirish va ularni lingvistik ma’lumotlar bazasiga integratsiya qilish muhim ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Frazemalarni kompyuterli modellashtirish quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- frazeologik birliklarni avtomatik tahlil qilishni osonlashtiradi;

- lingvistik protsessorda ularni semantik jihatdan soʻz yoki jumla identifikatori sifatida tushunish imkonini beradi;
- lingvokulturologik ahamiyatining saqlanib qolishini taʼminlaydi;
- iboralarning semantik yaxlitligini saqlaydi [7].

Oʻzbek tili oʻzining boy leksik-semantik imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Ushbu imkoniyatlarni kengaytiruvchi muhim vositalardan biri frazeologik birliklar, yaʼni iboralar hisoblanadi. Frazeologizmlar tashqi shakl jihatidan soʻz birikmasi yoki gap tuzilishiga yaqin boʻlsa-da, semantik jihatdan yaxlit lugʻaviy birlik sifatida qaraladi. Shu sababli ular alohida komponentlar yigʻindisi emas, balki umumiy koʻchma maʼnoga ega boʻlgan barqaror leksematik birlik sifatida talqin etiladi. Masalan, “koʻngli togʻdek koʻtarildi” iborasi alohida soʻzlarning maʼnosidan emas, balki “juda xursand boʻldi” degan yaxlit semantik mazmundan iboratdir.

Frazeologik birliklar til tizimida tayyor holda mavjud boʻlib, nutq jarayonida individual ravishda yaratilmaydi. Ular tilning emik darajasiga mansub barqaror birliklar sifatida lisoniy xotirada saqlanadi va kommunikativ jarayonda tayyor holda qoʻllaniladi. Masalan, “tilidan tushirmaslik” iborasi “doimiy ravishda eslatib turmoq”, “boshi osmonga yetdi” iborasi esa “nihoyatda xursand boʻldi” maʼnosini ifodalaydi.

Kompyuter lingvistikasi va korpus lingvistikasida frazeologik birliklar alohida lingvistik obyekt sifatida muhim oʻrin egallaydi. Korpus tizimlarida frazemalar odatda koʻp soʻzli birliklar (*multi-word expressions*) sifatida belgilab chiqiladi va ularning semantik, sintaktik hamda uslubiy xususiyatlari annotatsiya qilinadi. Bu esa avtomatik matn tahlili, mashina tarjimai, matnni qidirish (*information retrieval*) va nutqni qayta ishlash jarayonlarida muhim ahamiyatga ega.

Masalan, korpus lingvistikasida “ogʻzi qulogʻida” iborasi “juda xursand” maʼnosida alohida birlik sifatida markalanadi va uning tarkibiy soʻzlari (*ogʻiz, quloq*)dan mustaqil semantik qiymat ajratib olinmaydi. Shunga oʻxshash tarzda “koʻzi ochildi” iborasi “haqiqatni angladi” maʼnosida avtomatik aniqlash tizimlarida yagona semantik birlik sifatida kodlanadi.

Kompyuter lingvistikasida frazemalarning oʻrni, ayniqsa, mashina tarjimai tizimlarida yaqqol namoyon boʻladi. Masalan, “koʻngli togʻdek koʻtarildi” iborasini soʻzma-soʻz tarjima qilish notoʻgʻri natija beradi. Shu sababli korpus bazasida uning ingliz tilidagi ekvivalenti *felt extremely happy* yoki *was overjoyed* shaklida beriladi. Bu yondashuv frazeologik birliklarni leksik bazada alohida yozuv sifatida saqlash zarurligini koʻrsatadi. Shuningdek, matn korpuslarida frazeologizmlar *multiword lexical units* sifatida teglanadi va ularning qoʻllanish chastotasi, uslubiy xoslanishi hamda kontekstual variantlari avtomatik tahlil qilinadi. Masalan, “tilidan tushirmaslik” iborasi ommaviy axborot matnlarida, “koʻngli togʻdek koʻtarildi” esa badiiy matnlarda koʻproq uchrashi statistik korpus tahlili orqali aniqlanadi.

Xulosa qilib aytganda, frazeologik birliklar kompyuter lingvistikasi va korpus lingvistikasida muhim semantik birlik sifatida qaraladi. Ularni toʻgʻri identifikatsiya qilish va lingvistik bazaga kiritish avtomatik tahlil, mashina tarjimai va raqamli til resurslarining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Neyrolingvistika [Elektron resurs]. — URL: <https://uz.wikipedia.org/wiki/Neyrolingvistika>
2. Xolmanova Z. T. Kompyuter lingvistikasi. — Toshkent: Asian Book House, 2020. — B. 7.
3. Psixolingvistika [Elektron resurs]. — URL: <https://uz.wikipedia.org/wiki/Psixolingvistika>
4. Pragmalingvistika [Elektron resurs]. — URL: <https://uz.wikipedia.org/wiki/Pragmalingvistika>
5. Abjalova M., Iskandarov O. Oʻzbek tilida soʻz turkumlarini teglash usullari // IEEE UBMK–2021: Kompyuter fanlari va muhandisligi boʻyicha 6-xalqaro konferensiya materiallari. — Anqara, 2021. — B. 82–85. — DOI: 10.1109/UBMK52708.2021.9558900.
6. Abjalova M., Rashidova U. Til korpuslarida frazemalar bazasini yaratish omillari // Uluslararası Türk Lehçe Araştırmaları Dergisi (TÜRKİAD). — 2023. — 7-jild, 2-son. — B. 273–278.
7. Ahmedova D. B. Atov birliklarini oʻzbek tili korpuslari uchun leksik-semantik teglashning lingvistik asos va modellari: filologiya fanlari doktori dissertatsiyasi. — Buxoro, 2021.